

AFG‘ONISTONDAGI QO‘SHTEPA KANALINING MARKAZIY OSIYO GIDROSIYOSATIGA TA’SIRI

Abdurazzoqov DIYORBEK*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Afg‘onistonda Qo‘shTEPA kanalini shakllanishi va qurilishi, Markaziy Osiyo davlatlariga bo‘ladigan gidrosiyosiy ta’siri, muammosi, xavflari, oqibqlar va yechimlari to‘g‘risida soz boradi. Mavjud chuchuk suvlarning katta qismi qishloq xo‘jaligi maqsadlarida foydalaniladi. Markaziy Osiyo mamlakatlari deyarli barchasining hali- hanuz asosiy daromad manbasi esa aynan u bilan bog‘liq sanaladi. Biroq, suvdan foydalanishda isrofgarchilik holatlari, zamonaviy texnologiyalarni tadbiiq etish o‘rniga haligacha eski usublardan foydalanish kabi vaziyatlar ham uchramoqda. Mavjud vaziyatning oldini olish uchun rivojlangan mamlakatlar tajribasidan bevosita foydalanish, sug‘orishning yangicha innovatsion usullarini tadbiiq etish mintaqada har bir mamlakat oldida turgan dolzarb masalalardan sanaladi. Umuman olganda, har bir inson ona tabiatni asrab avaylashi, u bilan ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishi, suv resurslarini tejab foydalanmoqligi kerak. Davlatlar ham o‘zaro kelishgan holda murosa bilan boshqa mamlakat manfaatlarini ham inobatga olgan holda siyosat yuritmog‘i lozim.

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, Qo‘shTEPA kanali, Gidrosiyosat, TranscHegaaraviy Daryolar, Amudaryo, Sirdaryo, Orol Dengiz, Kaspii Dengiz.

THE IMPACT OF THE KOSHTEPA CANAL IN AFGHANISTAN ON THE HYDROPOLITICS OF CENTRAL ASIA

ABSTRACT

This article discusses the formation and construction of the Qosh Tapa Canal in Afghanistan, its hydro-political influence on Central Asian countries, its problems, risks, consequences, and solutions. The majority of available freshwater is used for agricultural purposes. This continues to be the main source of income for almost all Central Asian countries. However, there are cases of wasteful water usage, with old methods still being employed instead of modern technologies. To prevent this situation, the direct application of the experience of developed countries and the implementation of new innovative irrigation methods are among the relevant tasks for each country in the region. In general, everyone should preserve nature, treat it carefully, and use water resources efficiently. States should also pursue policies of mutual agreement, taking into account the interests of other countries. In addition, this article delves deeper into the geopolitical aspects of water issues analyzed. In particular, disputes between countries arise due to misunderstandings it is about the use of water resources.

Keywords: Central Asia, Koshtepa Canal, Hydropolitics, Transboundary Rivers, Amudarya, Syrdarya, Aral Sea, Caspian Sea.

Atf: DIYORBEK, A. (2024). “ Afg‘Onistondagi Qo‘Shtepa Kanalining Markaziy Osiyo Gidrosiyosatiga Ta’siri”, *HABITUS Toplumbilim Dergisi*, (5), 193-204.

Citation: DIYORBEK, A. (2024). “ The Impact of the Koshtepa Canal in Afghanistan on the Hydropolitics of Central Asia”, *HABITUS Journal of Sociology*, (5), 193-204.

Başvuru / Received: 07 Aralık 2023 / 07 December 2023

Kabul / Accepted: 19 Mart 2024 / 19 March 2024

Derleme Makale / Review Article.

EXTENDED ABSTRACT

One of the main sources of life on the earth is water. For this reason, the rational use of water is becoming more and more important in the future against the background of the sharp increase in the demand for water on a global scale and, in turn, the decreasing water resources. Water is a very important factor for human life. Nevertheless, the use of water as a geopolitical weapon

* TDSHU “Xalqaro Munosabatlar Yo‘nalishi” 2-Bosqich Talabasi, E-mail: diyorbekabdurqzzqov@gmail.com, ORCID Numarasi: 0009-0000-0642-2165

in the direction of international relations may cause several problems in the future. The need for water is increasing over the years. This can be seen in the context of climate change. The Koshtepa canal, which is being built in Afghanistan, may cause problems for the countries of Central Asia. Afghanistan remains the world's most complicated and still unsolved puzzle. This is one of the main reasons that led to the expansion and deep rooting of a number of problems in Afghanistan. The construction of this canal will not be without influence on the hydrogeopolitics of the Central Asian countries.

The history of the construction of the Koshtepa canal goes back to the time of the first president of Afghanistan, Mohammad Dawood Khan (1908-1978). Muhammad Dawood Khan proposed to build a canal in 1970. Due to various disputes, conflicts, and disagreements in Afghanistan for many years, there have been drastic changes in agriculture, including the demand for water. In the 70s of the last century, Afghanistan cultivated 3.5 million hectares of land under irrigation. Recently, as a result of wars and disturbances caused by the intervention of external forces, 1.5 million hectares of land have gone out of agricultural control and become unsuitable for farming. Irrigation of northern Afghanistan has long been a priority for Kabul since the 1970s. The need for this canal for the north began to arise, and the construction of the canal was emphasized.

On March 31, 2022, the Taliban government presented a project for the construction of a large canal in the north of Afghanistan. The Koshtepa canal, which starts from the Amudarya, is being built in Balkh region. When talking about the size of this channel, it should be noted that it is visible even from a satellite. The total value of the channel is estimated at 684 million dollars. The total length of Koshtepa canal is 285 km, width is 100 m and depth is 8.5 meters. More than 4,000 people are currently involved in the construction of this channel.

The construction of this canal could cause serious water shortages in the agricultural lands of downstream countries such as Turkmenistan and Uzbekistan. According to the "Global Village Espace" publication, the water shortage may increase in Khorezm, Bukhara, Surkhandarya and Navoi regions, as well as in the Republic of Karakalpakstan. More precisely, Afghanistan wants to take water for this canal from the upper reaches of Amudarya. Climate change will cause Uzbekistan to lose 15% of its water, and if the Koshtepa canal is built, another 10% will be lost, for a total of 25% of Uzbekistan's water. At the same time, the construction processes of the Koshtepa canal for the construction of a new canal in the Amudarya basin do not fully correspond to the world standard. This channel passes through the desert areas of

Afghanistan. Nevertheless, the canal is being built without any drainage systems. Construction works are being carried out in this channel only by digging and leveling the earth.

According to forecasts, by 2040, competition over water is considered one of the main problems that will overshadow the further strengthening of relations between the countries of Central Asia, which are among the countries with the highest "water stress".

It is known that countries have their interests, not their friends. As the interests of the countries of the Central Asian region constantly intersect, first of all, it is necessary to strengthen the friendship of the countries as an exception to the above opinion. After all, the signing of "Eternal Friendship" agreements between the countries of Central Asia in the period after independence shows the importance of each country of the region for each other. Most of the available freshwater is used for agricultural purposes. It is still the main source of income of almost all Central Asian countries. However, there are cases of wasteful use of water, old methods are still used instead of using modern technologies. In order to prevent the current situation, the direct use of the experience of developed countries, the implementation of new innovative methods of irrigation are among the urgent issues facing each country of the region.

In such conditions, various problems in the region, in particular, the fight against terrorism and extremism, the prevention of border disputes, the prevention of ethnic conflicts and, of course, the problematic situation related to water resources arising in the region, by mutual consensus, taking into account the interests of all countries. policy making is considered important.

At this point, it is worth mentioning that everyone should take care of mother nature, treat it carefully, and use water resources sparingly. States should also conduct policies with mutual agreement, taking into account the interests of other countries.

It is known that the Aral Sea, located between Uzbekistan and Kazakhstan, is considered one of the main issues in the center of attention of the leadership of our country. For example, in every speech delivered by the first President of the Republic of Uzbekistan, Islam Karimov, and Shavkat Mirziyoyev, who spoke at the UN podium, it is emphasized that the whole world community should work together to solve the problem, paying particular attention to the "Island tragedy". After all, the problem of the island is not a regional, but an international tragedy.

There is another threat to Central Asia that is somewhat overlooked. This is also the drying up of the Caspian Sea. According to Kazakh ecologists, the decrease of water in the Caspian is caused not only by climate changes, but also by the blocking of the rivers flowing

into it and the construction of many hydroelectric power plants. Since the water of the Caspian Sea began to decrease, the situation is being monitored by the scientists of the interested countries. According to their reports, the sea level is decreasing by 7-10 centimeters every year.

As for the use of water in agriculture, according to the data, more than 70 percent of fresh water in the world is used in agriculture, almost 20 percent in industrial production, and about 10 percent in household services. (Use of water in food and agriculture) It is known that the main income of Central Asian countries is still related to agricultural products. It is no secret that this sector requires the most water consumption. The increasing demand for water for agricultural purposes has led to conflicts over water allocation between different regions and sectors. Competition over water is considered to be the main cause of many conflicts between the population, especially in the border areas between countries or in enclaves and exclaves.

KIRISH VA DOLZARBLIGI

Yer yuzida hayot mavjudligining asosiy manbalaridan biri suvdur. Suv va undan oqilona foydalanish kelajakda jahon miqyosida suvga bo'lgan talabning keskin o'sishi hamda o'z navbatida suv resurslarining borgan sari qisqarib borishi fonida tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Suv hayotimiz uchun juda ham muhim vosita hisoblanadi. Shunga qaramay xalqaro munosabatlarda suvdan geosiyosiy qurol sifatida foydalanish ham mumkin. Yillar o'tgan sayin suvga bo'lgan ehtiyojni ortib borishini iqlim o'zgarishi fonida ko'rish mumkin. Afg'onistonda qurilayotgan Qo'shtepa kanali esa Markaziy Osiyo davlatlariga yuqorida aytib o'tgan muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Afg'oniston dunyodagi eng hafli va hali-hanuz o'z yechimini topmagan jumboqligicha qolmoqda. Bu esa Afg'onistonda bir qator muamollarni kengayib borishiga, balki chuqur ildiz otishiga olib kelgan asosiy sabablar sirasiga kiradi. Bu kanalning qurilishi Markaziy Osiyo davlatlari gidrosiyosatiga ta'sir o'tkazmasdan qolmaydi albatda.

AQSh Markaziy Razvedka Boshqarmasi xodimlarining 2012-yildagi ma'ruzasida ta'kidlanishicha, "Suvning noto'g'ri taqsimoti ko'plab ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Dunyo miqyosida suv havzalaridan siyosiy bosim o'tkazishda keng foydalaniladi, suvni qurol sifatida qo'llash ehtimoli ham mavjud" (Global Water Security 2012). Suv masalalariga ixtisoslashib, dunyoning ko'plab tillarida nashr etiladigan "Global Water Intelligence" jurnalda berilgan ma'lumotga ko'ra, suv bozorida bir yilda aylanadigan pul miqdori butun dunyo bo'yicha harbiy maqsadlar uchun sarflanayotgan mablag'ga yaqinlashib qolgan.

METOD

Ushbu maqolada tarixiy yondashuv, qiyosiy-siyosiy tahlil, sistematik va analitik. yondashuv metodologiyasidan unumli foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Qo‘shtepa kanali. Qo‘shtepa kanalining qurilish tarixi Afg‘onistonning birinchi prezidenti Muhammad Dovud Xon (1908-1978) davriga borib taqaladi. Muhammad Dovud Xon 1970-yilda kanal qurishni taklif qilgan. Afg‘onistonda uzoq yillar davomida turli hil nizolar, to‘qnashuvlar, va kelishmovchiliklar tufayli ularda qishloq xo‘jaligi, shu jumladan suvga bo‘lgan talab uchun keskin o‘zgarishlar ro‘y bergan. O‘tgan asrning 70-yillarida Afg‘oniston 3,5 mln gektar yerni sug‘orib dehqonchilik qilgan. Keyingi paytlarda yuqorida aytib o‘tganimizdek urushlar, tashqi kuchlarning aralashuvi tufayli sodir bo‘lgan notinchliklar oqibatida 1,5 mln gektar yer, qishloq xo‘jaligi nazoratidan chiqib ketgan, dehqonchilik qilish uchun yaroqsiz holga kelib qolgan. Bunda faqat yer emas, balki sug‘orish tizimlari ham ishdan chiqan. 1970-yillardan beri Afg‘oniston shimolini sug‘orish Kobul uchun uzoq vaqtdan beri ustuvor masala bo‘lib kelgan. Shimol uchun kanalga ehtiyoj tug‘ila boshlagan va kanal qurilishiga urg‘u berilgan. Qo‘shtepa kanaliga Afg‘onistonning Tojikiston, O‘zbekiston va Turkmaniston bilan chegarasini tashkil etuvchi Amudaryo, Tojikistonning Pomir tog‘ etaklaridagi Panj va Vaxsh daryolarining birlashuvidan boshlanib O‘zbekiston, Afg‘oniston va Turkmaniston xududlaridan o‘tayotgan va tobora qurib borayotgan Orol dengiziga quyilayotgan Amudaryo daryosidan suv olish maqsad qilib qo‘yilgan. (1-rasm)



Rasm 1. Qoshtepa kanali xaritasi (May 2023-yil).

“Tolibon” hukumati 2022-yil 31-martda Afg‘oniston shimolidagi o‘ta yirik kanal qurilishi loyihasi taqdimotini o‘tkazdi. Loyihaga ko‘ra Balx viloyati hududida, Amudaryodan boshlanadigan Qo‘shtepa kanali qurilmoqda. Bu kanal uncha kichik emaski sputnikdan ko‘rinmoqda. Kanalning umumiy qiymati 684 million dolarga baholangan. Taqqoslash uchun kanalning uzunligi qariyb Toshkentdan Samarqandgacha bo‘lgan masofaga tengdir. Qo‘shtepa kanalining umumiy uzunligi 285 km, eni 100 m va chuqurligi 8,5 metr dir. Bu kanal qurilishida ayni paytda 4000 dan ko‘proq kishi qatnashmoqda.

Bu kanal Afg‘onistonning tekislik mintaqasidan o‘tadi. Bu tekisliklar Qoraqum tekisliklaridadir. Qoraqum bu sahro. Qoraqumdagi qumliklarning qalinligi bir necha metr pastga qarab ketadi. Qurilayotgan Qo‘shtepa kanali esa aynan shu yerlardan yani Qoraqum tekisliklaridan o‘tadi. Bu esa ushbu kanalning foydali ish kofitsentini juda past bo‘lishini taminlaydi. Bu juda katta suv yo‘qotishlariga olib keladi va bu yo‘qotilgan suvlar atrofga, hudud ekologiyasiga, tuproqning suv fizik hossasiga, sho‘rlanish tartibiga va mavsum suvlariga juda katta ta’sir korsatadi. Kanal Amudaryodan yilliga 10 kub km suv olish uchun qurilmoqda. Suv kam mavsumlarda, quyi oqimdagi mamlakatlar uchun bu juda sezilarli bo‘ladi. Bu loyiha Turkmaniston va O‘zbekiston yozgi mavsum suvlarida keskin suv oqimining tushib ketishiga olib keladi. Pyanj daryosining Amudaryoga quyilish qismidan boshlab, Amudaryoning Orol dengizigacha bo‘lgan uzunligi 2540 km. biroq daryo suvi Orol dengizigacha yetib bormaydi. Endi Amudaryo Orol ko‘llarini taminlab beradigan Mejdurechensk suv omborida tugaydi. So‘ngi o‘n yilliklarda tez-tez ro‘y berayotgan kam suvli davirlarda Amudaryo bo‘ylab oqim: 2000-yilda 41,7 kub km, 2008-yilda 34,9 kub km, 2012-yilda 45,4 kub km ni tashkil etgan. Muammo shundaki Afg‘oniston Markaziy Osiyo davlatlari bilan suv taqsimoti bo‘yicha hech qanday kelishuvga ega bo‘lmagan. Afg‘oniston BMT ning Transchegaraviy suv oqimlari va xalqaro ko‘llarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyani imzolamagan. (The 1992 UNECE convention on the protection and Use of water).

Qo‘shtepa kanalining qurilish jarayonlari jahon standartiga to‘la mos kelmaydi. Bu kanal Afg‘onistonning cho‘l maydonlaridan o‘tadi. Shunga qaramay kanal hech qanday drenaj tizimlarisiz qurilmoqda. Bu kanalda faqatgina yerni qazib uni tekislash orqali qurilish ishlari olib borilmoqda. Bu xolatlar hozirgi paytda shundoq ham suv tanqisligi holatida umuman o‘zini oqlamaydi. Suv, kanalda hechqanday drenaj tizimi yoqligi sababli parlanish va yer tubiga singib ketish natijasida foydali ish koefitsenti juda ham past bo‘ladi. Qo‘shtepa sug‘orish kanalida noyabr oyi boshlarida birinchi jiddiy avariya yuz bergan va uning oqibatlari haligacha bartaraf etilmagan. Bu xaqida “Chegara bilmas daryolar” xalqaro ekologik koalitsiyasi ekspertlari xabar

bergan. Noyabr oyining 10, 15, 20, 25-sanalarida olingan tasvirlarda ham kanaldagi yoriq orqali suv oqib turgani aks etgan, xosil bo‘lgan suniy ko‘l kengaygan. Sentinel-2 suniy yo‘ldoshidan olingan kosmik suratlar, kanal Amudaryodan suv bilan to‘la boshlaganidan keyin, birinchi oyda gidrotexnik inshoot devorlari suv oqimining bosimiga bardosh bera olmagan, Qo‘sh-tepa kanali yoqasida suniy suv ombori aks etganini ko‘rish mumkin. Suniy yo‘ldoshdan olingan rasmlarda kanaldan chiqan katta hajmdagi suv yaqin atrofdagi hududga tarqalganini ko‘rish mumkin. Bu esa yuqorida aytib o‘tgan, transchegaraviy daryolar talabiga mos ravishda qurilmayotganligidan darak beradi. (2-rasm)



Rasm 2. Qo‘sh-tepa kanalidan suv sizib chiqishi (sentinel-2).

Quyi mamlakatlarga tasiri shundaki, agar ushbu loyiha “Tolibon” tomonidan yakunlanib, foydalanishga topshirilsa, bu Turkmaniston va O‘zbekiston kabi quyi oqimdagi mamlakatlarning qishloq xo‘jaligi yerlarida jiddiy suv tanqisligiga olib kelishi mumkin. O‘zbekiston suv taqchilligini yaqqol sezadi. “Global village espace” nashriga ko‘ra, Xorazm, Buxoro, Surxondaryo va Navoiy viloyatlarida hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida suv taqchilligi kuchayishi mumkin. Aniqrog‘i, Afg‘oniston bu kanal uchun suvni Amudaryoning yuqori oqimidan olmoqchi. o‘zgartirish yoki qayta qurish kerak bo‘lishi mumkin, bu esa qo‘shimcha xarajatlarni anglatadi. Iqlim o‘zgarishi O‘zbekistonni 15% suvini yo‘qotishga olib keladi, agar Qo‘sh-tepa kanali qurilsa yana 10% umumiy hisobda O‘zbekiston 25% suv yo‘qotadi.

Qo‘sh-tepa bilan bog‘liq masalani O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 20-dekabridagi murojatnomasida ilk bor tilga olgan edi: “Mamlakatimiz so‘ngi 3 yilda qurg‘oqchilikni boshdan kechirdi. Buning tasiri, ayniqsa Amudaryoning quyi havzasidagi hududlarimizda yaqqol seziladi. Shu o‘rinda Amudaryo

o‘zanida yangi kanal qurilishi bo‘yicha qo‘shni Afg‘onistonning muvaqqat hukumati hamda jahon hamjamiyati bilan birga xalqaro me‘yorlar asosida va mintaqaning barcha davlatlari manfaatlarini inobatga olish yuzasidan amaliy muloqotlar olib boorish lozim, deb hisoblaymiz. Bunday yondashuv qo‘shnilarimiz tomonidan ham qo‘llab-quvatlanishiga ishonamiz”. (Mirziyoyev 2022-yilning 20-dekabridagi murojaatnomasi).

TRANSCHEGARAVIY DARYOLAR

Amudaryo. Amudaryo Markaziy Osiyodagi eng sersuv daryo bo‘lib uning uzunligi 2540 km, maydoni 309 ming km² ga teng. 1984-yilgi Amudaryo suv resurslaridan kompleks foydalanish va muhofaza sxemasiga ko‘ra Afg‘oniston shu paytgacha Panj daryosi orqali Amudaryodan 2,1 mlrd kub metr suv olib kelgan. Amudaryo suvi yildan-yilga kamayib bormoqda. O‘zbekistonning Amudaryo va Sirdaryo havzalaridan yillik suv olish limiti 64 mlrd kub metrni tashkil etadi. Biroq suv tanqisligi sabab O‘zbekiston suv limitidan 20% ga kam suv olmoqda. (How Much Water Will Uzbekistan Receive This Year From The Amu Darya And Syr Darya Water Reservoirs? Bright Uzbekistan). Amudaryo suv taqsimlash tashkilotiga ko‘ra Turkmaniston, O‘zbekiston va Tojikiston 2022-yil jami 44,2 mlrd kub metr Amudaryo suvidan foydalangan. Suv olishning katta ulushi Turkmanistonga to‘g‘ri kelgan. Amudaryo Turkmaniston suv extiyojining 90% ni qoplaydi. Qo‘sh tepa kanalining qurilishi Tojikiston uchun biron bir salbiy tasiri sezilmasligi mumkin. Sababi Qo‘sh tepa kanali Amudaryoning O‘zbekiston hududiga o‘tgan qismidan qurilmoqda.

O‘zining strategik ahamiyatlariga ko‘ra “XXI asr qora oltin” nomni olgan neft o‘rnini bosuvchi suv xalqaro ziddiyatlar manbasiga aylanib bormoqda. BMT ma‘lumotlariga ko‘ra, 276 ta transchegaraviy suv havzalarining 60 foizi qirg‘oqbo‘yi davlatlarining o‘zaro hamkorligidagi boshqaruviga muhtoj. Transchegaraviy daryolar zahiralardan foydalanishda faqat o‘z manfaatini ko‘zla, bir tomonlama qarorlar qabul qilish va qo‘shni davlatlar manfaatlarini inkor etish-ziddiyatlarning asosiy sababidir. ya’ni hayot manbai hisoblangan suv bir vaqtning o‘zida geosiyosiy qurol ham bo‘la olishi mumkin. Ana shunday bir necha davlatlar hududidan oqib o‘tuvchi daryolar soni Markaziy Osiyoda to‘qqiztadir: Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Chu, Talas, Ili, Murg‘ob, Tejen, Irtish daryolaridir.

Transchegaraviy daryolar ayni bir vaqtning o‘zida bir nechta mamlakatlar iqtisodiyoti va ijtimoiy hayoti uchun muhim ro‘l o‘ynashi mumkin. Shu bois, transchegaraviy daryolar zahiralardan birgalikda foydalanish qirg‘oqbo‘yi davlatlarining hamkorligini talab etadi, chunki daryolar faqat bir davlatgagina tegishli emas.

Markaziy Osiyodagi transchegaraviy daryolar suvidan oqilona foydalanish istiqbollari mintaqa mamlakatlarining birgalikda o‘zaro sa’y-harakatlari bilangina cheklanib qolmay, qo‘shni chegaradosh mamlakatlar bilan ham samarali hamkorlikni talab etadi. Mazkur transchegaraviy daryolardan foydalanishning ham bir qator geosiyosiy jihatlari mavjud sanaladi.

- ushbu daryo o‘zani joylashgan mamlakatning daryo cho‘zilgan boshqa mamlakatlarga qila oladigan siyosiy ta‘siri;

- suv resurslaridan foydalanishdagi notekisliklarni sabab qilib mintaqa mamlakatlarini bir-biriga qarshi qilib qo‘yish orqali manfaat ko‘ruvchi yirik kuch mamlakatlarining geosiyosiy ta‘siri;

- ushbu daryolardan foydalanishda kelib chiqish mumkin bo‘lgan turli nizolar orqali mintaqada integratsiyalashuvning susayishi kabilardir.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 19-sentabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining 72-sesiyasida so‘zlagan nutqida Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan suv bilan bog‘liq muammolarga alohida to‘xtalib, shunday degan edi: “Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash bilan bog‘liq muammolar to‘g‘risidagi so‘z yuritar ekanmiz, mintaqaning umumiy suv zaxiralaridan oqilona foydalanish kabi muhim masalani chetlab o‘tolmaymiz. BMT Bosh kotibining “suv, tinchlik va xavfsizlik muammolari o‘zaro chambarchas bog‘liq”, degan pozitsiyasini to‘la qo‘llab-quvatlaymiz. Ishinchim komil, suv muammosini hal qilishning mintaqa mamlakatlari va xalqlari manfaatlarini teng hisobga olishdan boshqa oqilona yo‘l yo‘q.” (O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh asanliyosining 72-sesiyasida nutq so‘zladi. 2017)

Yuqorida aytib o‘tilganidek, mintaqani suv bilan ta‘minlovchi daryolarning aksariyati, Amudaryo hamda Sirdaryo transchegaraviy ahamiyat kasb etadi-ki, undan samarali foydalanishning yagona yo‘li o‘zaro hamkorlik hamda murosa sanaladi. Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining O‘zbekiston BMT ning preventive diplomatiya bo‘yicha mintaqaviy markazi tomonidan ishlab chiqilgan Amudaryo va Sirdaryo havzalari suv resurslaridan foydalanish to‘g‘risidagi konvensiyalar loyihalarini qo‘llab-quvvatlashi to‘g‘risida ta‘kidlab o‘tgani alohida e‘tiborga molikdir.

OROL DENGIZI INQIROZI

Nafaqat mintaqamiz, balki jahon hamjamiyatining e‘tibor markazida bo‘lgan mazkur ekologik falokatning kelib chiqish sabablari haqida to‘xtalar ekanmiz, uni mustamlakachi mamlakatning

o‘z qaram mamlakatlari uchun tayyorlab qo‘ygan yana bir “unitilmas tuxfasi”deyishimiz mumkin. “Puxta o‘ylangan” imperialistic siyosat natijasi o‘laroq, Orol dengizining asosiy manbai hisoblangan Amudaryo va Sirdaryo suvlarining bir tomchisini ham dengizga yetib borishiga yo‘l qo‘yilmasdan ularni qishloq xo‘jaligi uchun sarflashda bosh-qosh bo‘lgan bundan ko‘zlangan asosiy maqsad esa Orol dengizi qurib borayotgan bir sharoitda, uni Rossiyadan keluvchi Sibir daryolari orqali to‘ldirish orqali mintaqaning Rossiyaga qaramligini yanada oshirish hisoblangan. Afsuski, hozirgi kunda ushbu siyosiy o‘yin natijasida yuzaga kelgan ekologik halokat nafaqat mintaqaxalqi balki butun dunyo hamjamiyati uchun bevosita tegishli va ahamiyatlidir

O‘zbekiston va Qozog‘iston o‘rtasida joylashgan Orol dengizi mamlakatimiz rahbariyatining asosiy e‘tibor markazidagi masalalardan biri hisoblanishi ma‘lum. Jumladan, birinchi Prezidentimiz Islom Karimov hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT minbarida turib so‘zlagan har bir nutqida, aynan “Orol fojeasi”ga alohida e‘tibor qaralilib muammoni hal qilishda butun dunyo hamjamiyati bir yoqadan bosh chiqarishi kerakligiga urg‘u berilmoqda. Zero, Orol muammosi – mintaqaviy emas, xalqaro fojeadir.

KASPIY DENGIZINING QURISHI

Markaziy osiyo uchun yana bir xavf borki, u biroz e‘tibordan chetda qolmoqda. Bu Kaspiy dengizining ham qurib borayotganidir. 2022-yil 8-oktabr kuni NASA saytida Kaspiy dengizining 2006 va 2022 yilda tushirilgan fotosuratlarini e‘lon qilindi. (Yo‘ldosh 2022) 16 yil farq bilan olingan fotosuratlarda Kaspiyning ancha sayoz bo‘lgan shimoliy qismida, Qozog‘istonning Mang‘istov viloyati hududiga tutash joylarda suv ancha kamayib ketganini ko‘rish mumkin. Qozog‘istonlik ekologlar fikriga ko‘ra, Kaspiyda suvning kamayishiga iqlim o‘zgarishlaridan tashqari, unga quyilayotgan daryolar to‘silib, ularga ko‘plab gidroelektrostansiyalarning qurilishi ham sabab bo‘lmoqda. Kaspiy dengizining suvi kamaya boshlagandan buyon manfaatdor davlatlar olimlari tomonidan vaziyat kuzatib kelinmoqda. Ularning hisobotlariga ko‘ra, dengiz suvi har yili 7-10 santimetr pasaymoqda.

QISHLOQ XO‘JALIGIDA SUVDAN FOYDALANISH

Ma‘lumotlarga qaraganda, dunyodagi chuchuk suvning 70 foizdan ko‘proq qismi qishloq xo‘jaligida, deyarli 20 foizi sanoat ishlab chiqarishida, 10 foiz atofidagi miqdori maishiy xizmat ko‘rsatishda foydalaniladi. (Use of water in food and agriculture) Ma‘lumki, Markaziy Osiyo mamlakatlarining asosiy daromadi hali- hanuz qishloq xo‘jaligi mahsulotlari bilan bog‘liq. Bu sektor esa eng ko‘p suv sarfini talab qilishi sir emas. Qishloq xo‘jaligi maqsadlarida suvga

bo‘lgan talabning ortib borishi turli hududlar va sektorlar o‘rtasida suv taqsimoti bo‘yicha nizolarga olib keldi. Ayniqsa, mamlakatlar o‘rtasidagi chegara hududlar yoxud anklav va eksklavlarda yuzaga keluvchi aholi o‘rtasidagi ko‘plab nizolarning eng asosiy sababi ham suv ustidan bo‘lgan raqobat sanaladi. Quyida ba‘zi misollarni ko‘rib chiqsak:

- Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasida 1999- yilda So‘x anklavidagi suvdan foydalanish bo‘yicha chegaradagi to‘qnashuv.
- Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida 1999-yilda Isfara daryosidagi suvdan foydalanish bo‘yicha chegaradagi to‘qnashuv.
- 2013-yilda Farg‘ona vodiysida suvdan foydalanish bo‘yicha Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasidagi chegaradagi mojaro.
- Qirg‘iziston va O‘zbekiston o‘rtasida 2016-yilda So‘x anklavidagi suvdan foydalanish bo‘yicha chegaradagi mojaro.
- Qirg‘iziston va Tojikiston o‘rtasida 2021-yilda Botken viloyatida suvdan foydalanish bo‘yicha chegaradagi to‘qnashuvi.

XULOSA

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, bir mintaqada joylashgan, bir-biri bilan bevosita chegaralarga ega bo‘lgan, yagona tarix va o‘xshash qadriyatlar bilan bog‘lanib turuvchi Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlarining ham, avvalo bir- biri bilan o‘zaro yaqin hamkorlik aloqasi, turli xil muammolar ustida bir yoqadan bosh chiqarib, har bir tomonning manfaatini inobatga olgan holda qaror qabul qilishi mintaqadagi har bir davlat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalish sifatida belgilanishi nihoyatda muhim sanaladi. Qo‘sh tepa kanalining qurilishi Afg‘oniston uchun najot bo‘lishi mumkin. Qo‘sh tepa kanali loyihasi Afg‘onistonning Turkmaniston bilan chegaradosh Balx viloyatida amalga oshirilmoqda. Bu aynan Balx viloyati axolisi uchun qurg‘oqchilik muammosini birmuncha osonlashtirishini aytish mumkin. Albatda Afg‘on halqi uchun bu muqobilday tuyilsa, O‘zbek va Turkman xalqlari uchun muammolarni keltirib chiqarishi turgan gap. Shundoq ham Markaziy Osiyo davlatlarining oldida turgan kelajakdagi eng muhim muammolaridan biri sanaladi. O‘zbekiston uchun shundoq ham Orol muammosi yetarlicha haf solmoqda. Ayniqsa, maqolada tahlil etilgan, Markaziy Osiyoda mavjud bo‘lgan suv bilan bog‘liq muammolar suv resurslarining keskin kamayib borayotganligi fonida alohida muhim ahamiyat kasb etadi va hamkorlikdagi har tomonlama manfaatli yechimlarni talab etadi. Umuman olganda, har bir inson ona tabiatni asrab avaylashi,

u bilan ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi, suv resurslarini tejab foydalanmoqligi kerak. Davlatlar ham o'zaro kelishgan holda murosa bilan boshqa mamlakat manfaatlarini ha m inobatga olgan holda siyosat yuritmog'i lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Bo'ronov, S., Azimov, H. (2023). Sharq Mamlakatlarida Xavfsizlik Muammolari va Mojarolar. O'quv Qo'llanma; -T.: "EFECT-D", 344 b.

ШУЛЕПИНА, Н. (10 Dekabr 2022). Как повлияет строящийся в Афганистане канал Кош-тепа на Амударью? <https://sreda.uz/rubriki/voda/kak-povliyaet-stroyashhijsya-v-afganistane-kanal-kushtepa-na-amudaryu/>

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasining 72- sessiyasida nutq so'zladi. (20 Sentabr 2017). Получено из President.uz: <https://president.uz/oz/lists/view/1063>.

Global Water Report. (б.д.). Получено из Global Water Intelligence: <https://www.globalwaterintel.com/products-and-services/market-research-reports>.

Amu Darya River Basin Network. EastWest Institute. Получено из <http://amudaryabasin.net/content/amu-darya-river-basin>

The 1992 UNECE Convention on the Protection and Use of Transboundary Watercourses and International Lakes https://unece.org/DAM/env/water/documents/brochure_water_convention.pdf

Yo'ldosh, G. (13 oktabr 2022). Kaspiyning suvi kamaymoqda: Dunyodagi eng yirik ko'lning boshiga ham Orolning kuni tushadimi? Получено из kun.uz: <https://kun.uz/11924565>.

United Nations Economic Commission for Europe. https://treaties.un.org/Pages/ViewDetails.aspx?src=IND&mtdsg_no=XXVII-5&chapter=27&clang=en.

Законность нового канала талибов Кош-Тепа из Амударьи. Получено из <https://uzbekistanlawblog.com/legality-of-talibans-new-qosh-tepa-canal-from-amu-darya/>.

«Много работы для дипломатов» в Центральной Азии: талибы строят огромный канал. Получено из <https://www.thethirdpole.net/en/regional-cooperation/a-lot-of-work-for-diplomats-as-taliban-build-qosh-tepa-canal/>.

Marjona Ergasheva O'ral qizi. MARKAZIY OSIYO GEOSIYOSATIDA SUV MUAMMOLARI. <markaziy-osiyo-geosiyosatida-suv-muammolari.pdf>.

Экологлар Қўштепа канали ўпирилганини айтишмоқда. Бу ҳақда нималар маълум? [Экологлар Қўштепа канали ўпирилганини айтишмоқда. Бу ҳақда нималар маълум? \(kun.uz\)](https://kun.uz).

На возводимом талибами канале Кош-Тепа произошла авария - «Реки без границ». [На возводимом талибами канале Кош-Тепа произошла авария - «Реки без границ» — Новости Дарё \(daryo.uz\)](https://daryo.uz).

How Much Water Will Uzbekistan Receive This Year From The Amu Darya And Syr Darya Water Reservoirs? <https://brightuzbekistan.uz/uz/ozbekiston-bu-yil-amudaryo-va-sirdaryo-havzalaridan-q>